

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika –matematika fakulteti

“Amaliy matematika va axborot texnologiyalari” kafedrası

Ikramov Shahboz Subxanovich

**Galaosiya pedagogika kolleji rasmiy web saytini yaratish va ma’lumotlar
bilan to’ldirish.**

5480100-“Amaliy matematika va informatika” ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Ish ko‘rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”**

Kafedra mudiri.

_____ dots T.B.Boltayev
«_____» _____ 2014y.

Ilmiy rahbar _____ G.Yo.Bo’ronova

“_____” _____ 2014 y.

Taqrizchi _____ Sh.R.Saidov

“_____” _____ 2014 y.

“Himoya qilishga ruxsat berildi”

Fakultet dekani _____ t.f.d.prof.Sh.M.Mirzayev

“_____” _____ 2014 y.

Buxoro-2014

Mundarija:

Kirish.....	2
I.BOB. Web sayt yaratuvchi dasturiy vositalar haqida.....	9
1.1. Web texnologiyalar va ularning qo'llanilishi.....	9
1.2. Web texnologiyadan foydalanish maqsadlari ko'rsatkichlari..	11
1.3. HTML tili va uning imkoniyatlari.....	16
II.BOB.GALAOSIYO PEDAGOGIKA KOLLEJI WEB SAYTINI WORDPRESS TEXNOLOGIYASI ASOSIDA YARATISH	
2.1. Wordpressda web sayt yaratishning nazariy asoslari.....	35
2.2. Wordpressda Web – sayt yaratish algoritmi.....	41
2.3. Wordpressda Web – sayt yaratish bosqichlari.....	42
III. Xulosa.....	48
IV. Adabiyotlar.....	49

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ko'pgina sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar yuz berdi. Bunda asosan rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimlari namuna sifatida olinib, bizning xalqimiz imkoniyatlari va yutuqlariga mos holda yangi ta'lim tizimi ishlab chiqildi. 1997- yil 29- avgustdagi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi qonuni va «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlarda ham O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilganligidan darak beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov mamlakatimizni XXI asr bo'sag'asida rivojlanish strategiyasini oliy ustuvor yo'nalishga bo'lib, har biri to'g'risida alohida to'xtalib o'tdi: “Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylik, qanday muammoni yechish zarurati tug'ilmasin, gap oxir-oqibat, baribir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi”. Axborot texnologiyalari bo'yicha informatika sohasida kadrlar tayyorlash, shu jumladan Internet texnologiyalarini barcha sohalarda keng joriy qilish dolzarb masala ekanligini alohida uqtirdilar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish, ta'limni kompyuterlashtirish muammolarini hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muammoga hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning 2001-yil Oliy Majlisning 5-sessiyasida so'zlagan nutqida axborot texnologiyalari va kompyuterlarni jamiyat hayotiga kishilarning turmush tarziga, maktab va oliy o'quv yurtlariga jadallik bilan olib kirish g'oyasi ilgari surilgan edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 23-maydagi 230-sonli “2001-2005-yillarda kompyuter va axborot texnologiyalarini rivojlantirish”, shuningdek, “Internet”ning xalqaro axborot tizimlariga keng kirib borishini taminlash dasturini ishlab chiqishni tashkil etishning chora-tadbirlari to'grisida” gi qarorlari qabul qilindi. Oradan bir yil o'tgach, 2002-yil 30-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida” gi Farmoni va uning

ijrosini amalga oshirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6-iyundagi “2002-2010 yillarda kompyuterlashtirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish dasturi to`g`risida” gi qarori e`lon qilindi.

Kompyuterning ta'lim-tarbiya sohasidagi ahamiyati beqiyos. U xalq ta'limi tizimini ma'muriy boshqarishdan tortib maktab faoliyatini alohida tashkil etish, boshqarish nazorat qilishgacha, o`quv predmetlarini o`rganishni tashkil qilishdan tortib, o`quvchilarning individual mashg`ulotlarini tashkil etishgacha bo`lgan muammolarni qamrab oladi. Bu muammolarni hal qilish bo`yicha barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan, bizning Respublikada ham turli yo`nalishdagi tadqiqot ishlari o`tkazilmoqda.

Ta'lim sohasida kompyuterlashtirish, unga axborot texnologiyalarni joriy qilish bilan bog`liq muammolarni tadqiq qilishda muayyan yutuqlarga erishilgan bo`lsada, bu sohada yechimini kutayotgan masalalar ham talaygina. Bu masalalar qatoriga umumiy o`rta ta'limda kompyuterli ta'lim metodologiyasining o`rnatilmaganligi, pedagogik dasturiy vositalari (PDV) ni yaratish prinsipi, vosita bosqichlari va mexanizmining yetarlicha tadqiqi qilinmaganligi; o`quv materialiga pedagogik dasturiy vositaga mo`ljallab ishlov berish, ma'lumotlar omboriga joylashtirish usullari, ulardan foydalanish tizimining ilmiy asoslanganligi, dars jarayonidagi bosqichlarni to`liq kompyuterlashtirish masalalarining majmuaviy o`rganilmaganligi kabilar kiradi. Respublikamizning pedagogik olim va amaliyotchilari ilmiy asoslangan hamda O`zbekistonning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan ta'lim texnologiyalarini yaratish va ularni ta'lim-tarbiya amaliyotida qo`llashga intilmoqdalar.

Prezidentimiz o`z ma`ruzalarida bu borada quyidagilarga e`tiborni qaratdi: yangi darsliklar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o`z vaqtida chiqishi va uni amalga oshirishni ta`minlash; yuqori malakali pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash, ularni sifatini oshirish lozimligini ta`kidladilar. Respulikamiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologilarini o`qitish jarayoniga qo`llashdan iborat. O`zbekistonda ta'lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tan olinadi. Masofaviy

ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o'tkazilishi o'quv jarayonining zahira hajmini keskin oshirish bo'yicha yangi talablar qo'yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda. O'zbekistonda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyatli tizimli rivojlanishining yanada yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov "XXI asr axborot texnologiyalari asri" – deb ta'kidlaganlaridek, butun jahon taraqqiyoti tobora axborot texnologiyalari bilan tez suratda rivojlanib bormoqda. Xususan biz kabi yoshlarni zamon talabiga javob beruvchi mutaxassislar qilib tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun bozor iqtisodiyoti davrida "Amaliy matematika va informatika" mutaxassisligi kadrlariga talab mavjud.

Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish» to'g'risidagi qarori hamda «Kompyuterlashtirishni va axborot kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirishning 2002-2010- yillarga mo'ljallangan davlat dasturi»ga asosan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasi dolzarb vazifalardan biridir. Shuning uchun ham, dasturni zamon talablari asosida takomillashtirib borish o'ta zarur masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

WEB-texnologiyalarning rivojlanishi bilan ularni o'quv jarayonida qo'llash va rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayni vaqtda ushbu sohaning asosiy yo'nalishlaridan biri elektron kitoblar yaratish hisoblanadi. Oxirgi o'n yillikda elektron kitoblar ahamiyati yuqori darajada oshdi va ular nashriy kitoblar bilan birgalikda o'quv vositasi sifatida pedagogika tarkibiga to'liq kiritildi. Lekin shuni aytish joizki, ular nashriy kitoblardan bir nechta xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Bunga misol sifatida elektron kitoblarga qo'shiladigan animatsiya va tovush effektlarini keltirishimiz mumkin. Elektron kitoblar mohiyati oshishi bilan ularni ishlab chiqarish vositalari ham rivojlanib

kelmoqda. Elektron kitoblar yaratuvchi dasturiy vositalarga Microsoft FrontPage, Macromedia Flash, Macromedia Dreamweaver, Goldfusion va boshqalarni keltirishimiz mumkin. Ushbu dasturiy vositalar interaktiv muhitda elektron kitob yaratish uchun kerak bo'lgan asboblarni taqdim etadi va bu imkoniyatdan oddiy foydalanuvchilar ham foydalanishlari mumkin. Yaratilayotgan barcha elektron kitoblar asosida gipermatniy belgilash tili yotadi (**Hyper Text Markup Language**). Shuni inobatga olib, elektron kitobning qaysi dasturiy vositasida yaratilishidan qat'iy nazar, uni Microsoft Windows operatsion tizimi yordamida o'qib olishimiz mumkin. Elektron kitob ma'lumotlarini o'qish dasturi brauzer deb ataladi (Internet Explorer, Netscape Navigator va boshqalar).

Internet global tarmog'i rivojlanishi bilan axborot texnologiyalari sohasida ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, qabul qilish va uzatishning yangi vositalari paydo bo'lmoqda. Ushbu yangiliklarni inobatga olgan holda, elektron kitoblarning yana bir qulayligi, ularni tarmoqda ko'rish va o'qish mumkinligidir.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari .“Galaosiyo Pedagogika kolleji rasmiy web saytni yaratish va uni ma'lumotlar bilan to'ldirish” mavzusidagi, bitiruv malakaviy ishimning eng asosiy maqsadi :

1. Web sayt yaratuvchi dasturiy vositalarni o'rganish;
2. Web sayt yaratuvchi dasturiy vositalarning imkoniyatlarini taqqoslash va chuqur o'rganib chiqish;
3. Ta'lim muassasasi qiyinchiliksiz kunlik ma'lumotlarni yangilay oladigan dasturiy vosita orqali web saytni yaratish.

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov o'z ma'ruzalarida davlat ta'lim standartlarini, o'quv dasturlari va adabiyotlarini takomillashtirish, o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga ko'tarish vazifalarini belgilab ta'kidlab bormoqda.

Ta'lim sohasida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari, internet tizimi, raqamli va keng formatli telekommunikatsiyalarning zamonaviy usullarini o'zlashtirish, bugungi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan bunday ilg'or

yutuqlar nafaqat maktab, litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlariga, balki har qaysi oila hayotiga keng kirib borishi uchun zamin yaratish lozimligi ta'kidlangan.

Ta'lim muassasalarining web saytlarini yaratishdan maqsad- O'zbekiston Respublikasi yoshlarini mutaxassisliklar bo'yicha yo'nalishlar va o'rta maxsus o'quv yurtlari va boshqa ma'lumotlar bilan tanishtirishdan iborat.

Web sayt – bu ta'lim muassasalarining elektron jurnali bo'lib, biror bir sohaga, faoliyatga, voqea va hodisaga bag'ishlangan ma'lumotlarni o'zida jamlagan Internetdagi sahifalar majmuidir.

Foydalanuvchi internetdan o'zi qiziqqan ma'lumotlarni olishi yoki o'z sohasiga tegishli yangiliklarni kiritish mumkin.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda ta'lim muassasalarining veb saytlarini yaratish, veb saytning mazmuni, Internet tarmog'iga joylashtirish, saytning tashkiliy tuzilmasi haqida tavsiyalar keltirilgan va aniq masala ustida ya'ni Galaosiyo pedagogika kolleji rasmiy veb saytini yaratib internet tizimida joylashtirish ishi bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot obyekti. Tadqiqot ob'jektiga quyidagilarni ko'rsatish mumkin :Galaosiyo pedagogika kolleji

Tadqiqot predmetiga quyidagilarni ko'rsatish mumkin :

Microsoft Word, Microsoft Power Point, Microsoft Picture Manager,wordpress dasturlari yordamida yaratilgan web sahifalar.

Olingan asosiy natijalar:Galaosiyo rasmiy web sayti yaratildi va internet tarmog'ida joylashtirildi.U Kollej haqida, Rahbariyat, 2014-2015 o`quv yili qabuli,Kafedralar,Madaniy faoliyat va Kollej hayoti kabi sahifalardan tashkil topgan.Hozirda web sayt doimiy yangiliklar va elektron qo`llanmalar bilan boyitilmoqda.Har bir bo`limda mediafayllar joylashtirilgan. Kollej ma`muriyatiga web sayt dizayni juda ham yoqqanligi ishning asosiy yutug'idir.

Usullari: Natijalarni hal qilishda ilmiy uslubiy kompyuter texnologiyalari va informatikaga oid adabiyotlar tahlillarini o`rganish, kuzatish, tahlil qilish, internet forum tajriba eksprement kabi metodlardan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishidan olingan natijalarning yangiligi va amaliy ahamiyati: Natijalarga ilmiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, bu ishning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati quyidagilar:

1. Masalaning qo'yilishini o'rganib chiqqan holda Wordpress dasturini o'zim tanlab o'rganib chiqib web saytni yaratdim.
2. Amaliy ahamiyati juda katta, chunki : hozirgi kunda ta'lim muassasasi ushbu yaratilgan tizimdan foydalanmoqda.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi qo'llash sohasi. Hozirgi kunda jamiyatimizning har bir bo'g'inida oshkoralik hukmron va shu tizimni tashkil etuvchisi shubhasiz rasmiy web saytlar hisoblanadi. Demak, tadbiq etish darajasi juda keng. Iqtisodiy samaradorligi haqida qancha gapirsak oz. O'z - o'zidan ko'rinib turibdiki, ta'lim muassasasining web saytini yaratilish undagi qabul rejasi va yangiliklardan to'g'ridan to'g'ri boxabar bo'lish imkonini beradi bu esa anchagina tejamkorlikka olib keladi.

Qo'llanish sohasi

1. Ta'lim muassasasi tomonidan hozirda foydalanilmoqda..
2. Hozirda internet tizimida web saytda ixtiyoriy foydalnuvchi foydalanish imkoniyatiga ega.

Ishning hajmi va tuzilishi

Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2ta bob, xulosalari, xotima, foydalanilgan adabiyotlar, ilova, va 49 betdan iborat.

I.BOB. Web sayt yaratuvchi dasturiy vositalar haqida

1.1. Web texnologiyalar va ularning qo'llanilishi

Web texnologiyaning ma'nosi, dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchilar uchun ham, oddiy foydalanuvchilar uchun ham Web-texnologiya birinchi navbatda integratsion texnologiya ekanligi bilan ifodalanadi. Turli xil axborot manbalari va ularning turli tiplarini qanday qilib integratsiyalashga misol keltirish qiyin. Foydalanuvchi ma'lumotlarni har xil manbalardan – fayllardan, ma'lumotlar bazasidan, elektron jadvallardan, elektron pochta va hokazolardan izlashga majbur. Bundan tashqari, foydalanuvchi ma'lumotlarni turli ko'rinishda – matn, jadval, grafika (rasmlar, chizma, sxema) , video va audio shakllarda oladi. Albatta, turli xil tipdagi ma'lumotlarga kirish uchun aniq tipga – matn va grafik redaktorlar, elektron jadvallar, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va boshqalarga tegishli ma'lumotlarni «tushunadigan» maxsus izohlar kerak. Foydalanuvchi har kungi ishida kerak bo'ladigan ma'lumotlar tipining ko'pligi izohlarning ham ko'payishiga olib keladi. Maxsus interfeysli va ishlashdagi murakkab qoidali izohlar ko'p. Ammo ular foydalanuvchilarga anchagina muammo tug'diradi. Bunday muammoni samarali yechishga 2ta shartni bajarish orqali erishish mumkin. Birinchidan, turli xil tipdagi va tabiatli, turli manbalardan olingan ma'lumotlar foydalanuvchiga kelib tushishidan oldin o'zaro shunday mujassamlashadiki, u foydalanuvchining informatsion so'rovlariga maksimal darajada mos keladi hamda qabul qilish uchun eng qulay ko'rinishda taklif etiladi. Ikkinchidan, ma'lumotga kirish uchun foydalanuvchi tayyorlangan informatsiya bilan birgalikda ishlashga imkon beruvchi universal interfeysli bitta dasturdan foydalanadi.


Web texnologiya bu shartlarga to'la mos keladi. Web-server ma'lumotni turli manbalardan olib, uni yagona ko'rinishda foydalanuvchiga taqdim etadigan informatsion konsentrator vazifasini bajaradi. Universal va tabiiy interfeys bilan ta'minlangan brauzer foydalanuvchiga ma'lumotni uni tabiatidan qat'iy nazar, oson ko'rishga imkon beradi.

Web texnologiyaning integratsion sifatlari korporativ tarmoqlarda qo'llash uchun juda muhim bo'lib hisoblanadi. Gap shundaki, turli tipdagi ma'lumotlar integratsiyalashuvi imkoniyati kompyuter tarmog'ining turli uzellarida joylashgan axborotlarni birlashtirish mexanizmi bilan birgalikda axborotni yaratilish va foydalanishning tabiiy ketma-ketligi bilan mos ravishda to'plash va unga yagona kirishni amalga oshirish uchun imkon yaratadi. Bu bilan axborot yetkazib beruvchi axborotni samarali tayyorlashi va nazorat qilishi mumkin, foydalanuvchi esa kerakli axborotni unga zarur bo'lgan vaqtda qiynalmay topishi mumkin.

WEB - texnologiya nima uchun kuchli integratsion imkoniyatlarga ega ? Sababi, WEB texnologiya uchun axborotlar bilan ishlash texnologiyasi rivojlanishining 30 yillik davri asos bo'lib xizmat qildi. Aynan ochiq standartlardan foydalanish evaziga ma'lumotlarni brauzerning 1 ta sahifasi (1ta ekran) ga integratsiyalash imkoniyati mavjud.

Axborotning bir butun blokini buzmasdan turib, turli xarakterli va turli manbalardagi ma'lumotlarni ekranda mujassamlashtirish mumkin. WEB-server va WEB-navigatorlar nafaqat xalqaro masshtabda, balki har bir tashkilot uchun infratuzilmali servis sifatida foydalanilish mumkin va kerak.

WEB- texnologiyadan foydalanuvchilar tahlili. WWW foydalanuvchilarining kasblari bo'yicha ko'rsatkichlari.




1.1.1-chizma. WWW foydalanuvchilarining kasblari bo'yicha ko'rsatkichlari.

WEBdan foydalanuvchilar tarkibidagi o'zgarishlar dinamikasi oxirgi yillarda juda yuqori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 6-iyun 2000-

yildagi « Kompyuterlashtirish to'g'risida»gi qarori chiqqanidan so'ng, WWW ga Oliy O'quv Yurtlari va ish joylaridan kiruvchi kishilar soni (26%dan 50%gacha) ko'paydi. Aholining o'rtacha daromadi oshdi va kompyuter bilan bog'lik bo'lgan kishilar soni oshdi. Bu shundan dalolat beradiki, WWWdan foydalanuvchi yosh mutaxassislar uchun kompyuter oddiy asbobga hamda texnikadan uzoq , ammo Yangi texnologiyalar bilan qiziquvchi kishilar uchun ma'lumotnomaga aylandi. AQShda WWWdan ommaviy foydalanuvchilar soni ko'payib ketdi, deyarli har bir kompaniya Internetda o'zining Web-sahifasiga ega bo'lishni kerak deb hisoblaydi.

1.2. Web texnologiyadan foydalanish maqsadlari ko'rsatkichlari.



1.2.1-chizma. Web texnologiyadan foydalanish maqsadlari ko'rsatkichlari.

Foydalanuvchilar xohishlarining bo'linishi shuni ko'rsatadiki, WWW dan foydalanuvchi kishilar bitta maqsad emas, balki ko'p maqsadlarda foydalanishadi.

Internetda kishilar ko'p vaqtlarini o'tkazadilar – o'rtacha haftasiga 7 soat . Foydalanuvchilarning 72%i WWWga kunida hech bo'lmaganda bir marta kirishadi. WWW-navigatorlar FTP, GORNER va boshqalar uchun maxsus klientlarni butunlay almashtiradi.

O'tkazilgan testlardan ma'lumki, WWW tili – HTMLni o'rganish juda ham oson – 80% kishilar bu uchun 6 soat vaqt sarflaganlar.

ARXITEKTURA. Umuman tizim quyidagi komponentlardan tarkib topgan:

HTML gipermatn belgili tili;


HTTR gipermatn uzatish protokoli;

Internetda ma'lumot tipiga spesifikatsiyalar (Internet Media Types);


WWW-adresatsiya tizimlari (URL, URN, URI etc).

WWW uchun dasturlar. WWW uchun dasturiy ta'minotdan foydalanish ko'rsatkichlari, brauzerlar.

Platformalar bo'yicha WWW foydalanuvchilarining taqsimlanishi taxminan bozorning operatsion tizimlar orasida taqsimlanishini eslatadi.



1.2.2-chizma. WWW foydalanuvchilarining taqsimlanishi



1.1.4-chizma. Foydalanuvchilarning qaysi navigatoridan foydalanishni xohlashlarining taqsimlanishi.

Bu statistika hozirgi vaqtga taxminan to'g'ri keladi. Bozorda Microsoft Internet Explorer haqiqiy yetakchilik qiladi.

Web-texnologiyalarning nazariy asoslari

Internet ning asosiy texnologiyalari sharhi

Odatda Internet ning asosiy texnologiyalariga quyidagilar kiradi:

- **WWW** yoki **Web** (ingl. **World Wide Web** –Butun jahon o‘rgimchaklar to‘ri) – tarmoqda gipermatn bilan ishlash texnologiyasi;
- **FTP** (ingl. **File Transfer Protocol** – fayllarni uzatish qaydnomasi) – ixtiyoriy formatdagi fayllarni tarmoqda uzatish texnologiyasi;
- **IRC** (ingl. **Internet Relay Chat** – tarmoqda navbatma - navbat so‘zlashuv) – real vaqt oralig‘ida so‘zlashuvlarni olib borish texnologiyasi bo‘lib , tarmoq orqali to‘g‘ridan – to‘g‘ri muloqot muhitida boshqa insonlar bilan so‘zlashish imkoniyatini beradi;
- **E-mail**, elektron pochta – quyidagi bir nechta xizmat turlarini ko‘rsatadi: 1) elektron xatlarni uzatish va qabul qilish. Bu xatlar bir necha soat ichida yer sharining ixtiyoriy nuqtasidagi elektron pochta abonentlariga yetkaziladi, 2) turli xil firma va tashkilotlar tomonidan yuboriladigan sharhlar, hisobotlar va boshqa ma’lumotlarni abonentlarga yetkazish xizmati;
- **telekonferensiyalar** – bir-biridan uzoq masofada joylashgan insonlar o‘rtasidagi munozara ma’lumotlarini uzatish va qabul qilish texnologiyasi;
- Internet texnologiyalarining asosiy vazifa va imkoniyatlari shundaki, ular axborot manbalarini **tanlash imkoniyatining** ko‘pligidadir;
- Tarmoq serverlaridagi ma’lumotlar banki;
- elektron pochtdan uzatilayotgan tezkor ma’lumot;
- yetakchi kutubxonalar, ilmiy va o‘quv markazlari, muzeylar ma’lumotlar omborining rang-barangligi; Internet-magazin tomonidan taqdim etiladigan yumshoq disklar, kompakt – disklar, video va audio kassetalar, kitov va jurnallar haqidagi ma’lumotlar.

WEB-texnologiya.Bu Internet texnologiyalaridan biri bo‘lib, WEB-serverdagi axborotni qayta ishlash va sirkulyatsiya qilish bilan bog‘liqdir.

WEB-texnologiya va axborot nashriyoti.Web-texnologiya iste’molchilarga axborot xizmati ko‘rsatishning aniq konsepsiyasini taklif kiladi. Bir so‘z bilan uni axborot nashriyoti konsepsiyasi deb aytish mumkin.

Uni quyidagi xususiyatlari bilan ajratish mumkin:

- axborot iste’molchiga nashriy ko‘rinishda taklif qilinadi;

- nashr turli tabiatli va geografik joylashuvli axborot manbalarini birlashtirishi mumkin;

- axborot manbalaridagi o'zgarishlar publikatsiyada shu ondayoq o'z aksini topadi;

- publikatsiyalarda joylashuvidan qat'iy nazar boshqa publikatsiyalarga murojaatlar saqlanishi mumkin (gipermatnli murojaatlar);

- publikatsiyalarning iste'mol sifati zamonaviy multimedia standartlariga mos keladi(animatsiya, video, tovush, grafika,matn bilan ishlash mumkin);

Publikatsiyalarga misol qilib , oddiy gazetani keltirish mumkin.

Quyida gazetaning yangiliklarni uzatish vositasi sifatidagi ba'zi bir xususiyatlari:

- nashriyotchi gazetani kim o'qishini bilmaydi.

- gazetadagi axborotlar doimiy ravishda (har kuni, haftada bir) yangilanadi, ya'ni gazetada yangi axborotlar nashr qilinadi .

- hamma gazetaxonlar bir xil axborot olishadi.

- gazeta o'quvchiga talabi asosida yetkaziladi(bir martada- gazetani kioskan olganda, uzoq muddatli-biror bir vaqt oralig'ida obuna bo'lganda).

- gazetada turli xil elementlar – matn, fotografiya, jadval, grafikadan foydalaniladi.

- gazeta publikatsiyalarida boshqa publikatsiyalarga murojaatlar saqlanishi mumkin.

- gazeta «universal interfeysga ega, undan foydalanish uchun faqat o'qishni bilish kifoya, gazetani o'qish uchun maxsus bilimlar shart emas.

Shunga qaramay, Web-texnologiya axborotni publikatsiya qilish vositasi sifatida quyidagi ajralib turuvchi xususiyatlari mavjud

- nashriyotchi axborotni foydalanuvchiga qanday yetkazilishi bilan qizikmaydi.

- nashriyotchining xarajatlari publikatsiyaning qancha «tirajda» chiqishiga bog'lik emas

- axborotdan foydalanuvchilarning soni cheklanmagan

- publikatsiyaning prezentatsion sifatlari zamonaviy talablarga mos keladi

- publikatsiyada joriy axborotlar o'z aksini topadi
- publikatsiyada berilgan axborotlarga gipermatnli murojaatlar va kontekst vositasi orqali oson kirish mumkin.
- Web-texnologiya taklif qilayotgan keng turdagi ko'rgazmali imkoniyatlar tufayli axborot foydalanuvchiga tez yetib boradi.
- bu texnologiya axborotning manbalari va tiplariga deyarli talab qo'ymaydi
- texnologiya masshtabli qarorlar chiqaradi, bir vaqtning o'zida xizmat ko'rsatayotgan foydalanuvchilarning ko'payib ketishi sistemani qayta qurishni talab qilmaydi.

Universal interfeys. Web-texnologiya o'ziga xos xususiyati axborotni yetkazishning universal vositasi sifatida, inson va kompyuter o'rtasida umumiy va tushunarli interfeysning mavjudligidir. Bu interfeys oynali interfeysga qaraganda keng ma'noda universaldir, masalan, Windows on sistemasi taklif qilayotgan interfeys. Windows muhiti tabiiy ko'ringan tushunchalar (oynalar, tugmalar, menyu va b.) ni o'zida mujassamlashtirgan ishchi stoliga tayanadi. Lekin bu tushunchalar abstrakt bo'lib, inson har kungi axborot bilan ishlash jarayonida qo'llaydigan kategoriyalardan uzoq. Haqiqatdan ham inson real hayotida axborotlar bilan ishlaganda oynalar, tugmalar, menyudan o'z ma'nosida foydalanmaydi.

Brauzer interfeysining axborotlarga kirish usuli sifatida universallik darajasi o'zida turli xil axborot manbalariga kiruvchi maksimal unifitsirlangan interfeysni ifoda etadi. Faylga, ma'lumotlar bazasi jadvaliga yoki biror bir amaliy paketning ishi natijasiga kirish uchun boshqaruv vositali bitta dasturdan foydalaniladi. Axborot bilan ishlashni o'rgatish bir marta olib boriladi. Shundan keyin foydalanuvchi internetdan olinadigan hamma axborotlar bilan erkin ishlashi mumkin.

Gipermatn bilan ishlashning qulay bo'lishi uchun gipermurojaatlarni rasmiylashtirishning aniq standartlari mavjud. Gipermurojaatlar rasmlar, animatsiyalar yoki matn parchalarini o'z ichiga olishi mumkin. Shuni hisobga

olgan xolda gipermurojaatlar oddiy grafik ob'ektlar va matnlardan quyidagilar bilan farqlanadi

- Matnli gipermurojaat ekranda boshqa rang yoki ostiga chizish bilan ajratiladi.
- Foydalanuvchi murojaatga sichqoncha yordamida ko'rsatsa, sichqoncha yunaltiruvchi chizig'i ko'rsatkich barmoq ko'tarilgan qo'l ko'rinishiga kiradi.
- HTML formatli hujjatni ko'rsatuvchi gipermurojaatni bosganda, brauzer avtomatik tarzda ishga tushadi va ekranda murojaat qilinayotgan Web-saxifa paydo bo'ladi.

1.3. HTML tili va uning imkoniyatlari. Html nima ?

Html termini inglizchadan olingan bo'lib "Hypertext Markup Language" - "Gipertekst matlarni yaratish(belgilash)" degan ma'noni beradi. Html ni birinchi versiyasi Evropa fizika laboratoriyalari xodimi Tim Berners-Li yartgan.Html ni birinchi versiyasi bir necha o'zgartirishlar tufayli bir o'z muddat yaratish to'xtatib turildi. Kompyuterlar olamiga o'xshab, Htmlni ham spesifikasiyalari va versiyalari har xil ko'rinishga ega, bular alohida tartiblangandir.Taniqli spesifikasiyalari 2.0, 3.0, 3.2 va 4.0 lardir. HTML spe sifikasiyalarini yaratsih ishlarini World Wide Web consortium (qisqacha- W3C) uyushmasi o'z bo'yniga oldi.Ularni vazifalarispesifikasiyal tuzish va yaratish,zamonaviy dasturlash tillarini yaratish va shunga o'xshashlardan iborat bo'lgan.1997 yili iyulda hozir gi kundagi eng zamonaviy spesifikasiya - 4.0 yaratilgan. Qo'lanmada yozilgan hamma narsa dasturli ta'minotlarda ishlash uchun kafolatlangan.Bu qo'llanma hamma spesifikasiyalarda uchraydigan operatorlar yozilgan .Suning uchun ba'zi operatorlarni tashlab ketishga to'g'ri keldi.O'ylab qolamanki siz yaratgan sahifa o'ziga hos o'rinni egallab qoladi.

HTML ni o'rganishda nimalarga etibor berish kerak

HTML ni o'rganish uchun 2 ta narsa kerak bo'ladi:1. Har qanday brauzer, HTML-faylni ko'ra oladigan programmalar.2 Har qanday matli fayl,sizning

kodirovkangizga to'g'ri keladigan yoki rus alfaviti asosidagi. Agar sizning kompyuteringizda Windows to'liq o'rnatilgan bo'lsa , Notepad dan foydalanish mumkin. Matnli redaktorni HTML-fayl hosil qilish uchun ishlatiladi, brauzer bo'lsa — hosil qilingan faylni ko'rish uchundir . Agar sizni kompyuteringiz Internetga ulanmagan bo'lsa siz birinchi HTML hujjatingizni o'zingizda lokal diskingizda yaratasangiz bo'ladi. Bunda siz HTML faylni ko'rish uchun Notepad dan va Internet Explorer dan foydalansa bo'ladi. Html fayli hotira ga olayotganda uni *.html deb yozsangiz bo'ldi . Notepad da o'zgartirishlar bajargandan keyin uni hotiraga saqlab ,keyin Microsoft Internet Explorer muhitida OBNVIT tugmasini yoki F5 tugmasini bo'ssangiz , HTML-hujjatda qilgan o'zgartirishlaringizni ko'rib olishingiz mumkin.

Html hujjat qanday tuziladi ?

Html hujjat bu-oddiy *.html kengaytmadagi matnli fayli.(Unix sistemalarida bunday faylni kengaytmasi *.html bo'ladi) hozir biz siz bilan oddiy Html hujjatni dasturini ko'rib chiqamiz:html Bu Html ga doir oddiy misol.Bu *.html kengaytmali faylni bir vaqatning o'zida Notepad va Internet Explorer larda ochish mumkin

```

<                                     /p                                     >
<                                     /body                                  >
<                                     /html                                 >

```

Siz bu misolni [natijasini](#) ko'rishingiz mumkin

Bu misolni joy tashlab yozish shart emas. Bu misol chiroyli dasturga ega bo'lishi uchun joy tashlab yozilgan. Shuning uchun bu misolni quyidagicha yozish mumkin:

```

<html>
<head>
<title>Misol1
</title>
</head>

```

<body>

<H1>Salom

</H1>

< p > Bu Html ga doir oddiy misol.Bu *.html kengaytmali faylni bir vaqatning o'zida Notepad va Internet Explorer larda ochish mumkin

</p>

</body>

</html>

Bu misoldan kurinib turibdiki,dokumentni formatlashdagi operatorlar alohida belgilar "< "va" >" bilan yozilgan.Bunday belgi *Teg* deb ataladi(inglizcha -tag) Ko'p teglar juft-juft bo'ladi.Bunda ochadigan teg < tag > va yopadigan < /tag > lar bo'ladi.Yopadigan tagni nomi bir hil bo'ladi faqat "/" belgisi qo'shiladi. Bunday taglar "konteynerlar"deb ataladi.Taglar katta harflar bilan yozilishi ham mumkin, kichkina harflar bilan ham yizish mumkin.Misol uchun < Body &g ,< BODY &g va < body &g lar brauzerda bir hil qabul qilinadi.Lekin oson o'qish uchun bir razmerda yozish maqsadga muvofiq bo'ladi.Ko'pgina taglar o'zining *parametrlariga* ega bo'ladi.Parmetrlar-shu teglar nima vazifani bajarishi kerakli haqida brauzerga ma'lumot beruvchi elementlar hisoblanadi.Bizning birinchi misolimizda hozircha bittayam parametrlar yo'q.Lekin biz albatta kelgusu boblar bular bilan tanishib chiqamiz.

Kerakli teglar

<html></html>Teg < html > Html hujjatni ochishi kerak.Oxirida < /html > hujjatni yopishi kerak.

<head></head>Bu teglar hujjatni boshlang'ich va oxirgi matnini belgilaydi.Yana bu teg boshqa ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi(bu haqda keyinchalik tanishamiz).<title></title>bu tegdagi joylashgan narsalar brauzerga hujjatni nomini beradi.Bu teglarni yozilishi mobaynida *Microsoft Internet Explorer* ning yuqori chap burchagida hujjatni nomi paydo bo'ladi.Bu hujjatga nom berishda 64 ta

belgidan oshmaslikni taklif qilinadi. `<body> </body>` Bu teglar HTML hujjatni boshlanishi va tugashini ko'rsatadi. Qisqacha hujjatni tuzilishini ko'rsatadi. Buni parametrlari quyidagicha: *background* - orqa fonda qanaqa rasm turishini ko'rsatadi

scroll

bottommargin pastki qismga chegara o'rnatadi. *bgcolor* - orqa fonga rang beradi *bgproperties* - orqa fonni hossalari beradi. `< h1 > .. < /h1 > --`
`< h6 > .. < /h6 >` `< h1 >` ko'rinishdagi teg (bunda i-1 dan 6 gacha bo'lgan raqam) 6 ta har hil korinishga ega bo'lgan matni sarlavhasini beradi. Birinchidagi sarlavha kattaroq bo'ladi, ohiridagi esa hammasidan kichik bo'ladi. `p > < /p >` Bu taglar bilan satr boshi yoziladi. Bu teglar orasidagi narsalar hammasi bitta satr sifatida qabul qilinadi. `< h1 >` va `< p >` teglarga qo'simcha *Align* parametrini kiritish mumkin (inglizcha "joylashtirish"). Misol uchun: `< h1 align=center >` Sarlavhani o'rtaga joylashtirish yoki `< p align=right >` Satrni o'ng tomonga joylashtirish. *Align* ni parametrlari 4 tagacha bo'ladi: *left* - chap tomonga joylashtirish *center* - o'rtaga joylashtirish *right* - o'ng tomonga joylashtirish *justify* - ikki tomonga joylashtirish. Bularga misol keltiramiz

`<html>`

`<head>`

`<title>`

Misol2

`</title>`

`</head>`

`<body>`

<H1>

Salom!

</H1>

<H2> bu Html hujjatga doir sal murakkabroq misol < p > Endi siz satrni faqat chapga emas, balki < /p >< p align=center > O'rtaga yoki, < /p >< p align=right > o'nnga joylashtirishingiz mumkin< /p > < /body >< /html >Endi siz Html hujjatni yaratishni oddiyroq usulini boshdan oxirigacha bilib oldingiz.

Html faylda tashqari ishlari Boshqa fayllar bilan aloqa. Bir narsani eslatay, ya'ni boshida HTML degani "gipermatlarni yaratish (belgilash)" degani deb aytib o'tdik. Ho'sh yaratishni etarlicha bilasiz. Lekin gipertekst haqida nima bilamiz? Hammasidan oldin, Gipertekst o'zi nima? Oddiy matnlarni o'qishda ularni boshdan ohirigacha o'zini o'qiy olamiz holos, gipermatn esa boshqa ko'plab matlarga o'tish imkoniyatlarini ochib beradi. Ko'pgina taniqli dasturlarda tuzilgan sistemalar gipermatn usulidan tashkil topgan bo'ladi. Sichqonchani o'ng tugmasini bosish natijasida belgilangan so'z (matn) orqali boshqa documentga o'tiladi. Html da bunday o'tishni quyidagi teg orqali ifodalanadi: < a href="[o'tish manzili]" > belgilangan matn fragmenti < /a > [o'tish manzili] parametrda argumentlarni bir necha hilini kiritish mumkin. Eng oddiysi - boshqa Html faylga otish uchun unga nom berish. Misol uchun: < a href="chapter6.html" > 6 - bobga o'tish < /a > Bunda matnda 6-bobga o'tish fragmenti paydo bo'ladi, shuni bosish natijasida o'sha ekranda chapter6.html faylini dasturi bajariladi. Yana shunga etibor berish kerakki, manzilda o'tish joyi ko'rsatilmagan bo'lsa, o'tish o'sha joyning o'zida sodir bo'ladi. Agar o'tishda server nomi ko'rsatilmagan bo'lsa, o'tish o'sha serverning o'zida bo'ladi. Bundan tashqari yana bit muhim narsaga e'tibor berish kerak. Agar siz Html hujjatingizni nashrga tayyorlashda hujjatlarni bir - biriga nomi bo'yicha o'tishni bitta katalogda qilgan bo'lsangiz, unda unda o'z yo'nalishi bo'yicha ishlaydi, agar uni har qanday katalogga joylashtirilsa, lokal tarmoqqa yoki "Internet" ga joylashtirilsa, sizda butun bir boshli har hil hujjatlar kolleksiyasini to'plash

mumkin. Amalyotda, biroq, ko'pincha boshqa serverda joylashgan hujjat uchun ssilka kerak bo'lib qoladi. Misol uchun siz Internetdagi biror sahifa uchun ssilka bermoqchi bo'lsangiz, html hujjatingizga quyidagicha yizish kerak bo'ladi:

`<a href="http:\\qahramon.hotbox.ru" >` Bu qo'llanmani avtor Ba'zi bir noqulaychilikka nisbatan documentga oddiy o'tish o'tish ham mumkin, lekin qaerda joylashganini ko'rsatish shart. Buning uchun documentga yaratiladi va o'tish yo'li ko'rsatiladi yoki, anker usuli orqali qilish mumkin. Bu haqda misol orqali ko'rib o'tamiz: Aytaylik, 1.html kengaytmadan 2.html ga o'tish ko'rsatilgan bo'lsin va unda "O'tish tugadi" deb yozilgan bo'lsin (fayllar bitta katalogga joylashtirilgan). Hammasidan oldin, 2.html faylda bunday anker yaratamiz:

`< a name="AAA" > O'tish tugadi < /a > "O'tish tugadi"` so'zi hujjatdagi matnda hech qanday belqilashni bajarmaydi. Keyin 1.html faylda mana bunday ankerni aniqlash mumkin.

`< a href="2.html#AAA" > AAA Ankerga o'tish < a >` Bunday anker o'tishda 2.html faylni ichida nima borligini aniqlash mumkin. Faqat unga quyidagidek fragment bo'lishi kerak: `< a href="aaa" > AAA ankerga o'tish < /a >` Amalyotda bu hujjatlarni yaratishda juda qulay hisoblanadi. Hujjatni boshlanishida ankerlardan hujjatni sarlavhalaridan tashkil topgan ankerlar qo'yiladi, va unga nom beriladi. Ikkilanish bo'lmaslik uchun ankerni nomini lotin harflari asosida berish maqsadga muvofiq. Ankerlarni yozilishiga e'tibor bering: ba'zi bir brauzerlar katta harflar bilan kichina harflarni farqlaydi. Agar ankerni nomi AAA bilan aniqlangan bo'lsa aaa yoki AaA kabi ko'rinishda uzatma bo'lmaydi. Endi siz Html-hujjatda uzatmala haqida bilib oldingiz. Yana boshqa uzatma orqali boshqa resurslarga bo'g'lanish mumkin. `< a href="ftp:\\server\\directory\\file.ext"> Faylni yuklash < /a >`

Bu uzatma orqali lokal tarmoqda foydalanuvchi uchun fayl protokollariga o'tiladi va server nomli serverda *directory* katalogidan *file.ext* faylini yuklash boshlanadi.

`< a href="mailto:domen@mail.box" > Hat yuborish < a >` Agar foydalanuvchi bunday o'tishni amalga oshirsa, ekranda pochta programmasidagi ma'lumotlar

paydo bo'ladi. To'satrida pochta dasturida *domen@mail.boxmanzili* ko'rsatilgan bo'ladi. Boshqa resurlar bilan aloqa qilishga bir [misol7](#)

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>
```

Misol7

```
</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<H>Boshqa resurlar bilan aloqa </h>< Uzatmalar orqali boshqa fayllarga o'tish  
mumkin(misol uchun < a href="frame.html" >
```

```
Bosh sahifaga o'tish < /a > < /p >< p > Faylni yuklash mumkin( misol uchun < a  
href="ftp://rusf.ru/books/add-on/xussr_l/lukeyas12.zip" > Bu kitobni nomi  
"Labirint" < /a > bu ftp da < /p >< p > Foydalanuvchi bu qo'llanmani < a  
href="mailto:dj.shohjohon@mail.ru "> avtoriga hat < /a > yuborishi mumkin
```

```
< /p >
```

```
</body>
```

```
< /html >
```

Html hujjatda tasvir

Html hujjatda tasvirlar (rasmlar,) yaratish juda oddiy. Buning uchun faqat tasviringiz *.gif kengaytmada yoki *.jpeg kengaytmada bo'lishi kerak. Aytaylik, html hujjatga qaysidir katalogda joylashgan *ag00013.gif* rasmini hujjatga joylashtirish kerak bo'lib qoldi. Unda bunday yozish kerak bo'ladi:

```
<imgsrc="ag00013.gif">
```

```
<img="fayl nomi" > tegiga yana parametrlar qo'shish mumkin:
```

HEIGHT="qiymat", masalan:

```

```

